

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDAGI ISMLAR SEMANTIKASI

Abduhakimova Madina Kamolovna

SamDCHTI o'qituvchisi

Annotatsiya: Til har bir xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim omildir. O'zbek va nemis tillaridagi shaxs ismlarining semantikasi ularning tarixiy ildizlari, milliy qadriyatlar va madaniy aloqalari bilan bog'liq. Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi shaxs ismlarining semantik jihatlari o'rganiladi va ularning o'ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, antroponimlar, ismshunoslik, atoqli otlar

Annotation: Language is an essential factor reflecting the culture, history, and worldview of each nation. The semantics of personal names in Uzbek and German languages are related to their historical roots, national values, and cultural connections. This article examines the semantic aspects of personal names in Uzbek and German and compares their distinctive features.

Keywords: phraseological units, anthroponyms, onomastics, proper nouns

Inson dunyoga kelishi bilan bu yorug' olamni idrok qila boshlaydi va taqlid yo'li bilan dunyoni anglaydi. O'z ona tilini ham atrofdagi insonlarga qarab taqlid qilib o'rganib boradi. Ulg'aygan sari go'dakning ongi rivojlanib, o'z xotirasida yangidan-yangi informatsiyalarni shakllantiradi. Tilning nozik jihatlari kishilar ongida taraqqiy topadi. O'zbek tilining rivojlanishida va shakllanishida oddiy so'z yoki jumlaning ham o'rni beqiyosdir. O'zbek tili lug'at boyligining katta qismini insonlarga qo'yiluvchi ismlar va nomlar tashkil qiladi. Kishilarga qo'yiluvchi atoqli otlar tilshunoslikda antroponimlar deb ataladi.

Antroponim so'zi antroponomika so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ismlarni tadqiq etuvchi tilshunoslik sohasi onomastika deb ataladi. Antroponomika esa kishilar ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabi masalalarni o'rganadi.

Masalan, Nemis tilidagi quyidagi ismlarning o'z kelib chiqish tarixi mavjud, antroponimlarning ta'kidlashicha ushbu atoqli otlar turli xil negizlarga borib taqaladi:

Germanik ildizli ismlar: Asosan qadimgi german qabilalariga tegishlidir; *Friedrich* - tinchlik hukmdori, *Gerhard* - jasur nayzador.

Bibliyaga oid ismlar: *Johann*-Xudoning marhamati, *Maria* - pok, hurmatga sazovor, *Daniel* - Xudoning adolati.

Tabiat va qadimiy mifologiya bilan bog'liq ismlar: *Wolfgang* - bo'ri yo'l boshchisi, *Bernhard* - kuchli ayiq, *Helmut* - himoya va kuch ramzi. Demak, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek nemis tilida ham ismlar va atoqli otlar xuddi o'zbek tilidagi kabi o'z kelib chiqish tarixi va ildiziga egadir. Misol tariqasida o'zbek tilidagi quyidagi misollarni ham keltirishimiz mumkin: O'zbek tilidagi ismlarning ham o'z kelib chiqish tarixi mavjud va

ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin: **Turkiy ildizli ismlar:** O'zbek xalqining qadimgi turkiy ajdodlari tomonidan qo'llanilgan. Masalan, *Botir* - jasur, mard, *To'lqin* - dengiz yoki daryo to'lqini, *Qutlug'* - baxtli, muqaddas.

Islomiy-diniy ismlar: Arab, fors va islom dini ta'siri bilan bog'liq. Masalan, *Abdulloh* - Allohning quli, *Muhammad* - maqtovg'a sazovor, *Oisha* - hayot bilan bog'liq.

Tabiat va hayvonot olami bilan bog'liq ismlar: Masalan, *Barchinoy* - go'zallik ifodasi, *Lochin* - burgut turkumidagi qush, *Shumbola* - osmon bilan bog'liq obraz.

Shuni ta'kidlashimiz joizki, onomastikaning boshqa tilshunoslik sohalaridan farqli jihati shundaki, uning ijtimoiy determinizm bilan bog'liqligidir. Shunday ekan onomastika ismlar va atoqli otlarni ularning o'xshashlik va farqli jihatlari bilan o'rganishidadir. Demak, biz yana ikki til tarkibidagi ismlarning qiyosiy tahliliga nazar tashlashimiz lozim.

Quyida biz har ikkala til doirasidagi atoqli otlarning o'xshashlik jihatlaridan namunalar keltiramiz:

Har ikkala til tarkibida ham shaxs va ismlarda *tabiat va tarixiy shaxslar* asosida nomlashni qo'llaydi. Bundan tashqari ushbu tillar doirasida kelib chiqishi din bilan bog'liq bo'lgan ismlarning mavjudligi masalan, o'zbek ismlarida islomiy ta'sir kuchli bo'lsa, nemis ismlarida nasroniylik (Bibliya) ta'siri sezilarli. Masalan o'zbek tilida *Muhammad*, *Imron*, *Fotima*, *Maryam* kabi ismlar diniy hisoblansa, nemis tilidagi quyidagi *Daniel*, *Elbert*, *Gerakl* kabi ismlar diniy ismlar jumlasidandir. Shuningdek har ikkala tilda ismlarning shakllanishida qadimiy sivilizatsiyalarning ham o'rni beqiyosdir ya'ni sezilarli darajada deyish mumkin.

Har ikkala til doirasidagi ismlarning o'xshashlik va farqli jihatlarini tadqiq qilar ekanmiz bevosita farqli jihatlarini ham ta'kidlab o'tishimiz joizdir.

Har bir millatning milliyligi bevosita ismlar bilan bog'liq va ular orqali ham sezilib turadi deyish mumkin. Shu asnoda o'zbek shaxs ismlari asosan turkiy, fors va arab tillarining ta'siri kuchli ekanligi va ular bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Nemis tili onomastikasida esa german, lotin va skandinav ildizlariga ega ular keng tarzda o'z ta'sirini ko'rsatib turadi deyish mumkin. Shuningdek ikki til doirasidagi ismlarning kelib chiqishi ham bevosita xalqlarning yashash sharoiti va turmush tarzi shuningdek kasb-korlari negizida ham shakllangandir. Masalan o'zbek tilidagi *Bolta*, *Tesha*, *Yo'lchi* kabi ismlar shular jumlasidandir. Nemis tilidagi shaxs ismlari ko'pincha qirollik va ritsarlik davri bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, milliy antroponimlar ishtirokidagi frazeologik birliklar frazeologik tizimning semantik assimetriyasi bilan tavsiflanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va nemis tillaridagi shaxs ismlarining semantikasi har ikki xalqning tarixi, madaniyati va an'alarini aks ettiradi. O'zbekcha ismlar ko'proq tabiat, tarixiy shaxslar va islomiy madaniyat bilan bog'liq bo'lsa, nemis ismlari german urf-odatlarini, mifologiya va nasroniy an'alarini bilan chambarchas bog'liq. Ushbu nomlarning o'rganilishi xalqning tarixiy taraqqiyoti va madaniy merosini anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harald Burger. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin, Erich Schmidt Verlag, 2010.
2. Wolf Friedrich. Moderne deutsche Ideomatik. 2. Aufl. München, Max Hueber Verlag, 1976.
3. Seibicke W. Die Personennamen im Deutschen. Berlin; New York; de Gruyter, 1982.
4. Körte W. Die Sprichwörter und sprichwörtliche Redensarten der Deutschen. Nebst den Redensarten der deutschen Zechbrüder und Wetter Kalender. Leipzig, 1837.
5. Мальцева Д.Г. Страноведение через фразеологизмы. М., 1991.
6. Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии // ВЯ. 1998. No 6. С. 48-57.